

NUROTA TUMANIDA QADIMIY SUG'ORISH MANBLARINING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

Toshimov Muhridin Esanboyevich

Navoiy davlat universiteti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nurota tumanidagi sug'orish tizimining vujudga kelishi bayon etilgan. Shuningdek, hududning suv omborlari va hovuzlarning shakllanishi ularning tarqalishi hamda sug'orishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'z: Nurota, Pistalitog', Qizilqum, sanggoh, suv omborlari va hovuz, xonbandi, loyqa, to'g'on.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ ДРЕВНИХ ИСТОЧНИКОВ ОРОШЕНИЯ В НУРОТИНСКОМ РАЙОНЕ

Тошимов Мухриддин Эсанбоевич

Преподаватель Навоийского государственного университета

Аннотация: В статье описывается возникновение ирригационной системы в Нуротинском районе. Освещены также вопросы формирования водохранилищ и прудов в регионе, их распространения и значения для орошения.

Ключевые слова: Нурота, Писталитог, Кызылкум, сангох, водоемы и пруды, ханбанди, грязь, плотина.

THE EMERGENCE AND FORMATION OF ANCIENT IRRIGATION SOURCES IN NUROTA DISTRICT

Toshimov Mukhriddin Esanboevich

Teacher at Navoi State University

Abstract: This article describes the emergence of the irrigation system in Nurota district. It also discusses the formation of reservoirs and ponds in the region, their distribution, and their importance in irrigation.

Keywords: Nurota, Pistalitog, Kyzylkum, sanggoh, reservoirs and ponds, khanbandi, mud, dam.

Suv hayot manbai insoniyat bor ekan suv insonlarining kundalik hayotida turmush darajasida yashashida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Suvdan insonlar kundalik hayotida ekinlarni sug'orishda chorva mollarini sug'orishda hamda zavod va fabrikalarda, uylarni isitish tizimida foydalaniladi. Insonlar ekinlarni sug'orishda suvni tejab ishlatish maqsadida ko'p yerlarda tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'ygan hamda sun'iy sug'orish ishlarini amalga oshirmoqda.

Sun'iy sug'orish O'rta Osiyodagina emas, balki umuman butun sharqda quyidagi tabiiy-geografik sharoitlarda vujudga keladi:

1. Tog' daryolarining allyuvial loyqalaridan hosil bo'lgan unumli vodiylarda;
2. Tekislikda oqadigan katta daryolarning adoqalarida va deltalarida.

Biz tahlil qilayotgan Nurota sug'orish tizimi 1-tabiiy-geografik sharoitda vujudga kelgan. Yahyo G'ulomov rahbarlik qilgan O'zbekiston-Zarafshon ekspeditsiyasining Nurota otryadi tomonidan 1948-yil yozida tog' tizmasining butun shimoliy yonbag'ri bo'ylab o'tkazilgan izlanishlaridan kuzatish mumkin.

Nurota tog'tizmasi sharqdan g'arbga cho'zilgan, uning shimoliy yonbag'ri Qizilqum sahrosi bilan bog'lanib kelgan. Nurota tizmasining sharqiy qismi yonida birin-ketin tor va baland bo'lmagan tog' tizmalari avval Pistalitog', keyin Pastdog' tizmalari cho'zilib yotadi. Bu tizmalarga Nurota tizmasidan shimolga taxminan 15 km ga yetib boradigan yassi tekislik borib taqaladi. Nurota tizmasining o'zi baland, qoyali va Qizilqum tomoniga chiqadigan juda ko'p uzun daralari bor. Har bir dara tagida ko'pda-ko'p bo'laklardan tashkil topgan kichik-kichik soylar oqadi. Soylarning suvi daradan chiqqandan keyin tekislikda singib ketadi. Bahorda yomg'irlar yog'ib qorlar eriganda bu soylar loyqa suvli jo'shqin daryolarga aylanadi. Tizmaning sharqiy sektoridagi soylar daralardan chiqqandan so'ng shiddat bilan Pistalitog' va Pasttog' etaklari tomoniga yo'l oladi. Soy daradan chiqqandan keyin dastlab keng va tezoqar daryocha hosil qilib, mayda va yirik toshlar orasidan oqadi. Bu toshlar daralardan oqizib chiqqan bo'lib, ko'pincha suv yo'lini to'sib yotadi. Shunday qilib, uzunligi taxminan 5 km, kengligi 1-2 km keladigan uzun bir maydon yoppasiga mana shu toshlar bilan qoplangan va shuning uchun ham "sanggoh" (Toshloq), deb ataladi. Keyinchalik joy nishabi asta-sekin kamayadi, soy o'zani borgan sari sayozlanadi va soy suvi keng bo'lib toshganga o'xshab qoladi. Bu yerda u o'zi bilan oqizib ketayotgan shag'al va qumni cho'ktirib qoldiradi, ammo loyqani Pistalitog' va Pasttog' etaklarigacha olib boradi. Bu ikkala tog' tizmasi soy suvlari uchun ko'ndalangiga yotgan tabiiy ko'tarilma hisoblanadi. Suvdagi barcha loyqa shu yerda cho'kadi va shu sababli bu yer "Loyqa" nomi bilan yuritiladi. Loyqa tarkibida ko'p miqdorda qum bo'lganligidan va shu sababli suv ancha chuqurlikka singib keta olganligidan bu yerda ekin birinchi haydashdan keyin ekiladi.

Dastlab, ekinni to'g'ridan-to'g'ri sug'orish loyqaga ekkan bo'lsalar kerak, keyinchalik mahalliy dehqonlar bu loyqaning xususiyatini juda yaxshi bilib olgan. Boshloqlar chiqara boshlagan davrda, yozgi yomg'ir yog'adimi yo'qmi, baribir, albatta sug'oriladi, chunki bu sug'orish hosilni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Sug'orish uchun soy suvidan foydalaniladi. Juda Qadim zamonlarda

daralarning ichkarisida deyarli hamma yerlarda kichik-kichik suv omborlari barpo etilgan bo'lib, bularga har kuni suv to'plangan va o'rnatilgan tartibga muvofiq ulardan navbati bilan dalalarga suv yuboriladi. Dalalar bilan har bir soyning "loyqalar"i o'rtasidagi masofa katta bo'lishiga qaramasdan, suv omborlari orqali yuborilgan suv ekin dalalariga yilning barcha mavsumlarida yetarli bo'ladi va bug'doy, arpa, tariq, kunjut, qovun va boshqalarni yetishtirishga imkon beradi.

Bu loyqalarda sug'orma dehqonchilik maydonlarining mavjud emasligi Nurota tog' tizmasi ichidagi daralarning tabiiy va strategik jihatdan lalmi yaylovlarning shallanishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu soy terrassalari Qizilqum cho'li tomonidan esadigan shimoliy, simoli-g'arbiy shamollarning kirib kelishidan himoyalangan bo'lib, havo harorati nisbatan issiqroq bo'ladi.

Daralarning yuqori qismida juda ko'p yong'oq, bodom o'sadi soyning har ikki tomonidagi yonbag'ir esa tokzorlar bilan qoplangan. Buloqlardan chiqib turadigan soy suvining doimo bo'lishi u yerda yashovchi aholini va ularning chorva mollarini suv bilan ta'minlaydi. Har bir daraga kirish joyiga qadimgi darvlardayoq tashqaridan qilinadigan hujumlarga qarshi maxsus istehkomlar qurilgan. Dasht ko'chmanchilarining bevosita yaqinligi ayniqsa, xavfli bo'lgan. Shu sababli tumanning butun aholisi yashash uchun qulay bo'lgan daralarni tashlab ketmay, Nurak, Osmon, Kulba, Uchma, Uxum, Forish, Mojrum, Sentob, Sop, Katta Ej, Temirqovuq va boshqa soylarning loyqalanishida keng ko'lamda dehqonchilik bilan shug'ullanib, otroq yashash uchun imkoniyatlar yaratgan.

Hozirgacha aholi foydalanib kelayotgan dara ichkarisidagi suv omborlari-"hovuzlar"ning qurilishi juda sodda bo'lib, soyning qirg'og'idagi tog' etagida o'rtacha kattaligi 60x40 metr keladigan qulay maydoncha tanlanib, uning uchta tomonini katta-katta toshlar bilan ko'taradilar. Pastki nishab tomonining balandligi 2 metr, qalinligi 1,5-2 metrli tosh devor bilan to'siladi. Buning ro'parasidagi tomon esa nishabiga muvofiq ko'tariladi. Hovuzlar shunday qurilgan-ki, ularga soyning hovuzdan yuqoriroqda oqadigan suvi tushadi. Hovuzga faqat bir joydan suv kiradi, u eng yuqori nuqtada joylashgan, kichikroq teshik

shaklidagi, odatda suvning bir qismi oqib chiqadigan joyi esa, soy oqimining quyi tomoniga qarama-qarshi ko'tarilmaning pastki qismida joylashgan bo'ladi. Hovuzdan suvni chiqarishni boshqarib turadigan birdan-bir mexanizm suvga tushirilgan uchiga eski qop, paxtalik eski to'n parchasi va hokazo bog'langan uch metrli uzun tayoqdir. Suvni to'sib, hovuzdan chiqarmaslik uchun teshikni ana shu qop bilan bekitadilar va tayoq suvdan tik ko'tarilib turadi. Suv chiqarish kerak bo'lsa, devor ustida turgan odam qop bog'langan tayoqni tortib oladi va suv 4-5 soatda oqib chiqadi, shundan keyin ertasi kungacha tuynuk yopib qo'yiladi. Hovuzning bunday qurilishi suvni ancha tejab foydalanishga imkon beradi.

Bunday kichik hovuzlar bilan bir qatorda, bundan taxminan 1000 yillar ilgari "Osmonsoy", deb atalgan juda katta suv ombori qurilgan edi. U o'z zamonasi



uchun juda katta inshoot bo'lgan. Bunga keladigan Ilonchi soyining suvi juda ko'p hamda uning bahorgi jo'shqin suvlari Yangiqishloq qarshisida Pastdog'ni yorib o'tib, Qizilqum chegarasidan tekislikka chiqadi.

Unumdor loyqaning asosiy massasi ancha uzoq va buloq suvlari borib yetmaydigan Kaltepa tekisligida to'planganligi uchun X asrda somoniylar davrida u yerda doim suv bilan tamin etish uchun suv ombori qurishga qaror qilingan edi. Ilonchisoy oqib o'tadigan Pasttog'dagi dara to'g'on qurish uchun eng qulay joy bo'lgan. Boshlang'ich joyida 260 metr kenglikka ega bo'lgan kichik bir dara borgan sari torayadi, so'ngra 420 metr masofada u ikki tomondan tik tushgan qoyalar orasida qisqaradi va uning eni hammasi bo'lib 50 metrdan sal oshadi. Soy mana shu yerda suvga chidamli maxsus aralashma qo'shilgan alyobastr qorishma bilan mustahkamlangan, yo'nilgan toshlardan katta to'g'on bilan to'silgan. To'g'onning balandligi 16 metr, eni tagi asosida 8-10 metr, tepasi 2-3 metr, uning orqa tomoni deyarli tik bo'lib, ikki joyida yarim konus shaklidagi tayanchig'lar

bilan mustahkamlangan. Bular to'g'onga memoriy manzara berib turadi. To'g'onda o'nta teshik ochilgan, ulardan hozir to'qqistasi saqlanib qolgan. Har bir teshik o'tkir uchli peshtoq shaklida bo'lib balandligi 60 sm. eni 50 sm.dir. Teshiklarning chetiga juda puxta qilib yo'nilgan tosh bilan o'ralgan. Teshiklar ancha murakkab joylashgan va qisqagina izoh talab qiladi. Suv chiqish yo'llari ancha murakkab joylashgan va qisqagina izoh talab qiladi. To'g'on, yuqorida aytilganidek, eng tor joyda qurilgan. Bu yerda har ikki tomondan bahaybat kulrang granit qoyalar qad ko'tarib turadi, bulardan, ayniqsa, g'arbiy tomondagi katta burchak shaklida oldingi tomonga moyil bo'lib turadi. Shuning uchun ham to'g'on asosining ravog'i ustki ravoqdan ancha kichik. Ustki ravoq 51 m.ga yetadi, suv chiqarish yo'li esa diokanal bo'lib joylashgan. Katta bosim bilan har qaysi teshikdan otilib chiqayotgan suv dastlab shu qoyaga tushadi va so'ngra undan quruq o'zan bo'ylab qazilgan kichik ariqqa oqib tushadi. Ariqlar o'zanning har ikki tomonidan oqadi. Ariqlarning kengligi ikki metrda oshmaydi va ular qolgan soyga qaraganda ancha baland o'rnatilgan.

Nurotalik dehqonlar asosan qadim zamonlardan bog'dorchilik, uzumchilik va albatta, g'allakorlik bilan shug'ullanishdan. Hudud g'allakorlari qadimdan lalmikor bug'doy va arpa ekib kelishgan. Kuz mavsumi davomida yer shudgor qilingan va bahor kelishi bilanoq yerga urug'qadashga kirishilgan. Lalmikor g'alachilikda kuzgi va bahorgi urug' qadash ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Nurota vohasi qishloq xo'jaligida muhim soha sanalgan dehqonchilikning asosini tashkil qiluvchi sug'orish sohasi qadim zamonlardan rivojlanib kelgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, Nurota tumanidagi sug'orish tizimi juda qadim zamonlarda vujudga kelgan hamda dehqonchilik bilan shug'ullanilgan. Tog' daryolarining vujudga kelishi ularning bahor faslida qorlarning erishidan hamda yomg'ir suvlaridan to'yingan davrda to'lib oqishi daryo suvlari bilan ekinlarni sug'orishda foydalaniladi. Bu esa tog' daralarida suv havzalarini shakllantirishga kata tirtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Хорошихин А.П. Кызылкумский дневник // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876. – С. 398-402;
2. Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы о родоплеменном составе узбеков каракалпаков и туркмен // Труды института археологии и этнографии. – Т., 1950. Т. III. – С. 155-159;
3. Туркмены в Среднеазиатском междуречья. – Ашхабад: элым, 1989. – С. 12;
4. Шевяков А. И. О коренном населении Нуратинских гор и прилегающих раёнов (материалы полевых исследований 1998 - 1999) // Восток. – 2000. – № 2-3;
5. Кармышева Б.Х. Пешерева Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта // СЕ. – М., 1964. – С. 22-23.
6. Tolipov Fayzulla Nurota turkmanlarining Nurota tog'lariga kelib joylashishi hamda o'zbek xalqi tarkibidan o'rin egallaganligi haqida ma'lumot. (Garasha qishlog'i haqida tarixiy etnografik risola). Toshkent. 2008.
7. Moziyga bo'ylashgan maskan (Garasha qishlog'i haqida tarixiy etnografik lavhalar). T., 2008. Туркмены в Среднеазиатском Междуречье. – Ашхабад: 1989. – С. 12-31.
8. Всероссийская перепись населения 1920 году.
9. Abdullayev U. Etnologiyada terminologiya muammosi // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondoshuvlar. – T., 2004. – B. 13.
10. Latipov, N. (2022). УРБОЭКОЛОГИЯ-ГЕОГРАФИЯ ВА ЭКОЛОГИЯНИНГ ФАНЛАРАРО СИНТЕЗИ. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Komilova, N., Makhmudov, B., & Latipov, N. (2023). Study of crimes in the city of Kokand using GIS technologies and sociological questionnaires. *Visnyk of VN Karazin Kharkiv National University, series" Geology. Geography. Ecology"*, (59), 125-139.
12. Abduxomidovna, X. I. (2022). NAVOIY VILOYATIDA QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*,(2).
13. Jurayevna, M. N. (2018). The geographical features of population mortality in Uzbekistan. *European science review*, (1-2), 35-38.
14. Mukhammedova, N. J., & Talabboyeva, M. (2024). NAVOIY VILOYATI SANOATI. *New article*, 1(1), 64-66.